

Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-iyul dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

IV. META MA'LUMOTLAR

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 160 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 73 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 087 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 18 263,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 115,9 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 875,8 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 158,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 17 387,7 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,4 %) shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 155,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 153,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 375 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 359 tani tashkil qildi.


Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 064,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga oshdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 9 366,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,6 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Sariosiyo (3 721,2 %), Sherobod (540,0 %), Jarqo'rg'on (311,9 %) va Uzun (249,5 %) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)

Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 473 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 472 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 180,7 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 76,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**IV. META MA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)



Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A. Dusanazarov Tel: +998554518000 (7540)	Ijrochi: I. Yusupova Tel: +998554518000 (7541) e-pochta: info@surxonstat.uz	Manzil: 190108, Termiz sh. at-Termiziy ko'chasi, 7-uy,
--	---	--	--